

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI  
HUZURIDAGI DSc.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

---

**G.V. PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

**YOVQOCHEV SHAHZOD ZAYNIDDIN O'G'LI**

**SUN'IY INTELLEKTNI JORIY ETISH SHAROITIDA INSON KAPITALI  
VA ISH BILAN BANDLIKNI TRANSFORMATSIYALASH**

**08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK:37.018.43:004.8:331.101.262(575.1)  
Y56**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on economic sciences**

**Yovqochev Shahzod Zayniddin o'g'li**

Sun'iy intellektni joriy etish sharoitida inson kapitali va ish bilan bandlikni  
transformatsiyalash.....3

**Явкачев Шахзод Зайниддин угли**

Трансформация человеческого капитала и занятости в условиях внедрения  
искусственного интеллекта.....31

**Yovkochev Shakhzod Zayniddin ugli**

Transformation of Human capital and Employment in the Context of Artificial  
Intelligence Implementation.....59

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 64

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI  
HUZURIDAGI DSc.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

---

**G.V. PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

**YOVQOCHEV SHAHZOD ZAYNIDDIN O‘G‘LI**

**SUN’IY INTELLEKTNI JORIY ETISH SHAROITIDA INSON KAPITALI  
VA ISH BILAN BANDLIKNI TRANSFORMATSIYALASH**

**08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt2925-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (reu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Arabov Nurali Uralovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Goyipnazarov Sanjar Baxodirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.I.100.01-raqamli Ilmiy kengashning majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz.

Dissertatsiya bilan G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**K.X. Abduraxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash raisi,  
O'zR FA akademigi, iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

**Z.G. Shakarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash ilmiy  
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**A.S. Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda raqamli, ayniqsa sun'iy intellektga asoslangan iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi sharoitida qo'shimcha qiymat ega bilim va axborot salmog'ining ortib borishi bilan inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra "inson kapitali loyihasi tashabbusi 90 dan ortiq davlatlarni qamrab olgan bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishga sarmoyalarni tezlashtirishga qaratilgan. Ushbu dastur doirasida inson kapitali rivojiga mo'ljallangan, xodimlarni yangi iqtisodiy talablarga moslashish uchun qayta o'qitish va malakasini oshirish loyihalarini qo'llab-quvvatlashga taxminan 4,6 milliard dollar ajratilgan"<sup>1</sup>. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal rivojlantirish va ularni tizimli ravishda integratsiyalash sharoitida biznes jarayonlarini optimallashtirishga ko'ra, inson kapitalini rivojlantirish masalalari dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish borasidagi tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda. Bu borada sun'iy intellektning mehnat bozori transformatsiyasiga ta'sirini baholash uslubiyatini takomillashtirish hamda inson kapitali, bandlik tuzilmasi va sun'iy intellektning o'zaro ta'siri, sun'iy intellekt intellekt sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi ilmiy muammolar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqamli va sun'iy intellektga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishda inson kapitalini samarali boshqarish kabi yo'nalishdagi tadbirlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasiga muvofiq<sup>2</sup>, jumladan "sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish, sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish, Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekiston Respublikasining birinchi 50 ta o'rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish" vazifalari belgilab berilgan". Mazkur vazifalarni hal etishda sun'iy intellektning inson kapitali va mehnat bozorining transformatsiyasiga ta'sirini baholash, inson kapitali, bandlik va sun'iy intellektning o'zaro ta'siri modellarini tadqiq etish, inson kapitali transformatsiyasi orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish, sun'iy intellekt ta'sirida biznes jarayonlarining o'zgarishi bilan kasbiy ta'lim va

---

<sup>1</sup> Human Capital Project. How to Create More Jobs through Investing in Human Capital [Электронный ресурс]. URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/humancapital/brief/how-to-create-more-jobs-through-investing-in-human-capital>

<sup>2</sup> "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024-yildagi PQ-358-sonli Qarori.

ko'nikmalarni optimallashtirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konse-siyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-oktabrdagi 717-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mehnat salohiyatini oshirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, inson kapitalini rivojlantirish masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar<sup>3</sup>, jumladan: T.Shuls, G.Bekker, L.Turov, P.Romer, E. Dolan, R.Krouford, T.Garavan, P.Rastor, R.Frank va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Inson kapitali rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar<sup>4</sup> M.M.Krit, R.I.Kapelyushnikov, B.M.Genkin, L.I.Abalkin, S.V.Yakimchuk, R.M.Nureyev va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiyalash sharoitida biznes jarayonlarini optimallashtirish asosida inson kapitali transformatsiyasi tadqiqotiga

---

<sup>3</sup> Schultz, T. W. Investment in Human Capital / T.W. Schultz // The American Economic Review. 1961. Vol. 51. Pp. 1–17. ; Bekker G. Inson kapitali (kitobning boblari). Inson kapitaliga investitsiyalar tushumiga ta'siri. AQSh: Iqtisodiyot, siyosat, mafkura, 1993 y. - № 11.; Thurow L. Investment in Human Capital. Belmont, 1970. -104 p.; Romer P. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy.- 1990, Vol. 98(5). -Pp. 71–102.; Dolan E. D. Lindsay Market: microeconomic model - St.-Petersburg, 1992. - 477 p.; Crawford R. In the Era of Human Capital // New York: Harpercollins, 1991. - 242 p.; Garavan T. Thomas N., Morley M., Gunnigle P. Human Capital Accumulation: The Role of Human Resource Development // Journal of European Industrial Training. 2001, Vol.25 (2). - Pp. 48–68; Rastogi P. Knowledge Management and Intellectual Capital as a Paradigm of Value Creation // Human Systems Management. - 2002, Vol. 21 (4). -Pp. 229–240.; Frank R. Bernanke B. Principles of Microeconomics (3rd ed.) // New York: McGraw-Hill/Irwin, 2007. - 464 p.

<sup>4</sup> Экономическая теория и хозяйственная реформа: Сб. науч. тр. / Редкол.: М.М. Критский и др. // СПбГИЭА, 1995. - 125с.; Новые приоритеты в реформировании экономики России: Сб. науч. тр. / Редкол.: М.М. Критский и др. /- СПбГИЭА, 1996. - 111с.; Капелюшников Р. И., Албегова И. М., Леонова Т. Г. и др. Человеческий капитал России: проблемы реабилитации // Общество и экономика. -1993, № 9–10. - С. 4-13.; Генкин Б.М. Экономика и социология труда: учеб. для студ. вузов / 2-е изд., испр. и доп. – М.: НОРМА; ИНФРА-М, 2000. – 400 с.; Абалкин Л.И. Перестройка: пути и проблемы: Интервью дир-ра Ин-та экономики АН СССР акад. Л.И. Абалкина с сов. и иностр. журналистами (май 1988 г.) ю – М.: Экономика, 1988. – 213 с.; Якимчук С.В. Развитие человеческого капитала: региональный аспект // Экономический часопис-XXI. - 2015, №1-2(1). - С. 20-23.; Нуреев Р.М. Развитие человеческого капитала как реальная альтернатива сырьевой специализации страны // Экономический вестник Ростовского государственного университета. – 2007, № 3. - С. 111-129.

yetakchi xorijlik olimlardan<sup>5</sup> S.Fatima, S.Gregori, G.S.Dauson, K.S.Desouza, J.S.Denford, Yu.Panayotopoulos, A.Kaplan, S.B.Free, M.V.Kudina, S.O.Smirnov, S.N.Koroleva, T.A.Bryuxanova, M.A.Poloxina va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan<sup>6</sup> K.X.Abdurahmonov, S.S.G'ulyamov, B.X. Umurzakov, A.S.Usmanov, N.K.Zokirova, B.A.Islamov, N.U. Arabov, D.A.Nasimov, B.Sh.Maxkamov, N.X. Raximova, X.X.Mamadaliyeva, G.K.Abdurahmonova, A.B.Irmatova, Sh.D.Kudbiyev, S.B.G'oyipnazarov, Z.Ya. Xudayberdiyev, A.Yu.Magrupov va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Shunday qilib, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini integratsiya qilish sharoitida biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun inson kapitalini transformatsiya qilish muammosi xalqaro va milliy miqyosda faol o'rganilib, katta natijalarga erishilmoqda. Ammo, SI ni jadal rivojlanishi va uning mehnat bozori, iste'dodlarni boshqarish va ko'nikmalarni rivojlantirishga kuchli ta'sirini inobatga olgan holda, ushbu mavzu hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib, yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab etadi. Biznes jarayonlariga SI ni joriy etish samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlashga yondashuvlarni hamda inson kapitalini boshqarishni raqamli iqtisodiyotning yangi realliklariga moslashtirishni tadqiq etishni zarurat etadi.

---

<sup>5</sup> Fatima, S., Dawson, G.S., Desouza, K.C., Denford, J.S. The people dilemma: How human capital is driving or constraining the achievement of national AI strategies [Электронный ресурс] // Brookings Institution. URL: <https://www.brookings.edu/articles/the-people-dilemma-how-human-capital-is-driving-or-constraining-the-achievement-of-national-ai-strategies> (дата обращения: 17.10.2024). Panayotopoulos, Y., Kaplan, A. Transforming Talent Management through AI and Digital Innovation [Электронный ресурс] // International Journal for Multidisciplinary Research (IJFMR). URL: <https://pdfs.semanticscholar.org/panayotopoulos>. Frey, C.B., Osborne, M.A. The Future of Employment: How Susceptible are Jobs to Computerisation? [Электронный ресурс] // Oxford University, 2017. URL: <https://www.oxfordmartin.ox.ac.uk/downloads/academic/future-of-employment.pdf>; Кудина, М.В. Трансформация человеческого капитала в условиях устойчивого развития [Электронный ресурс]. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=47062035>; Смирнов, С.О., Бегунова, Е.В. Влияние цифровизации на рынок труда и замещение рутинных функций автоматизацией [Электронный ресурс]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovizatsiya-i-rynok-truda>; Королева, С.Н., Брюханова, Т.А. Формирование новых бизнес-моделей и компетенций в условиях интеграции ИИ [Электронный ресурс]. URL: <https://vael.ru/ru/article/koroleva-bruhanova-business-models>

<sup>6</sup> Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида. – Т.: Иқтисодиёт, 2012. – 542 б. 81-82 б. <http://library.ziynet.uz/uzc/book/6389>; Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики. – Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г.В. Плеханова», 2023. –432 с. Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т. Цифровизация образования в Узбекистане. Материалы научно-практического семинара. 2019. С. 169-171; Abdurakhmanov K.H., Zokirova N.K., Islamov B., Hiwatari M. (2016) Systemic transformation and sustainable human development: the Case of Uzbekistan. Jakarta: Gunadarma Publisher, 2016, p. 230.; Умурзаков Б.Х. Организационно-правовые основы регулирования трудовой миграции в Узбекистане // Международные отношения. 2008, № 2. Abdurakhmanov K., Zokirova N. Human development. Textbook. Bremerhaven-2014. p. 423.; Мамадалиева Х.Х. Ўзбекистонда оила ривожланишининг ижтимоий-демографик жиҳатлари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т: 2019, 77 б., Абдурахманова Г.К. “Кичик бизнесда аҳолини иш билан таъминлаш”. Монография. – Т.: «Iqtisodiyot». 2014, с. 216; Арабов Н.У. Особенности формирования демографической ситуации в Республике Узбекистан// Журнал “Экономика и инновационные технологии”. 2018.№ 2. Худойбердиев З.Я. ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси. Ўқув қўлланма. «ILMZIYO» 2016, Насимов Д.А. Ишсизлик мамлакатнинг макроиқтисодий муаммоси сифатида// Интеллектуал маданий мерос халқаро журнали. 2022.2(3) 122-126 б. Кудбиев Ш.Д. Роль МОТ в формировании и регулирование рынка труда молодежи. Collection of scientific papers on materials VIII International Scientific Conference. Том Part 1. 2019. С. 50-55.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq FZ-5421033210-sonli "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sun'iy intellektni joriy etish sharoitida inson kapitali va ish bilan bandlikni transformatsiyalash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning rivojlanish xususiyatlarini ilmiy yondashuvlar asosida yoritib berish;

sun'iy intellektning inson kapitali va mehnat bozorining transformatsiyasiga ta'sirini baholash;

raqamlashtirish va avtomatlashtirish sharoitida inson kapitali, ish bilan bandlik va sun'iy intellektning o'zaro ta'sir modellarini tadqiq etish;

sun'iy intellektni joriy etish sharoitida samarali ishga joylashish uchun yangi kompetensiyalar va ko'nikmalarni shakllantirish;

inson kapitali transformatsiyasi orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish va bandlik tuzilmasini o'zgarishini ilmiy asoslash;

inson kapitali va mehnat bozori transformatsiyasi jarayonidagi muammolar, to'siqlar va ijtimoiy masalalarni aniqlash;

raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitali va ish bilan bandlikni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;

sun'iy intellekt ta'sirida biznes jarayonlarining o'zgarishi bilan kasbiy ta'lim va ko'nikmalarni optimallashtirish;

sun'iy intellektni joriy qilish sharoitida inson kapitali sifatini oshirish, ish bilan bandlikni moslashtirish va biznes jarayonlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini biznes muhitida joriy etishga yo'naltirilgan inson kapitalini transformatsiya qilish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash sharoitida biznes jarayonlarini optimallashtirish orqali inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, nazariy manbaalar tahlili, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, so'rov va intervyu, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta'siriga ko'ra raqamli transformatsiyaning konseptual modeli raqamli transformatsiyaning inson kapitali tuzilmasi va funksiyalariga ta'sirini baholash, xodimlarni yangi ish sharoitlarga



moslashtirish, inson kapitaliga adaptatsiya qobiliyatlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

inson kapitalini rivojlantirishning moslashuvchan kompetensiyasini raqamli va katta ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish, tahliliy fikrlash va sun'iy intellekt hosilasi natijalarini taqqoslash, personalda fanlararo bilimlarni rivojlantirish va tahliliy-dasturiy faoliyatda intellektual tizimlar bilan integratsiyasini maqsadli segmentlarga (vazifalarga moslashtirish) asosida rivojlantirish taklifi asoslangan;

inson kapitalini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash strategiyasi korporativ madaniyatni innovatsiyalarga moslashtirishga ko'ra uzluksiz maslashuvchan ta'lim dasturini joriy qilish, sun'iy intellekt sharoitida inson kapitali va ish bilan bandlikni transformatsiya qilish orqali biznes jarayonini optimallashtirish hamda biznes jarayonida ijtimoiy vazifalarning ustuvorligini e'tiborga olgan holda integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

sun'iy intellektni joriy etish samaradorligini innovatsion va odatiy sun'iy intellektni dinamik tarzda birgalikda qo'llash va mehnat bozorining istiqbol talablarini resurslar imkoniyati uyg'unligiga ko'ra biznes jarayonlarni optimallashtirish negizida oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sun'iy intellektni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash va uning mehnat unumdorligiga ta'sirini o'lchash vositalarini aniqlash hamda xodimlarni yangi texnologiyalarga moslashtirish asosida biznesni uzoq muddatli barqaror rivojlantirishga qaratilgan inson kapitalini boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

sun'iy intellekt sharoitida personalni tayyorlashdagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga imkon beruvchi ko'nikmalarni tahlil qilish, kompaniyalarga texnologik o'zgarishlarga tezkor javob qaytarishni rag'batlantiruvchi boshqaruvi jarayonlarini yo'lga qo'yish yuzasidan tavsiyalar asoslangan;

sun'iy intellektga asoslangan holda biznes jarayonida resurslarni samarali taqsimlash va asoslangan qaraorlar qabul qilish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** mazkur ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbaalar, jumladan xalqaro tashkilotlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy statistika agentligi hisobotlaridan olingani, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda asoslangan xulosa va tavsiyalar inson kapitalini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish transformatsiyasi bo'yicha nazariy-uslubiy yondashuvlarni hamda xodimlarning kompetensiyalariga ta'sirini tizimlashtirish, sun'iy intellektni biznes jarayoniga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy foydani baholash usullarini takomillashtirishga va ushbu sohada amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun nazariy baza bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish, SI sharoitida

xodimlarni qayta tayyorlash, personalni yangi ish sharoitiga moslashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va biznes jarayonlarni optimallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sun'iy intellektni joriy etish sharoitida inson kapitali va ish bilan bandlikni transformatsiyalash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta'siriga ko'ra raqamli transformatsiyaning konseptual modeli raqamli transformatsiyaning inson kapitali tuzilmasi va funksiyalariga ta'sirini baholash, xodimlarni yangi ish sharoitlarga moslashtirish, inson kapitaliga adaptatsiya qobiliyatlarini integratsiyalash asosida takomillashtirish bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-sonli Farmoni 3-ilovasa "Ta'lim sifatini ta'minlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 15-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 12-iyundagi 03/17-1800-son ma'lumotnomasi). Taklif, jumladan kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq ravishda baholash va monitoringni amalga oshirish uchun ta'lim sifatini ta'minlashga doir sifat indikatorlarini ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilgan;

inson kapitalini rivojlantirishning moslashuvchan kompetensiyasini raqamli va katta ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish, tahliliy fikrlash va sun'iy intellekt hosilasi natijalarini taqqoslash, personalda fanlararo bilimlarni rivojlantirish va tahliliy-dasturiy faoliyatda intellektual tizimlar bilan integratsiyasini maqsadli segmentlarga (vazifalarga moslashtirish) ko'ra rivojlantirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PQ-152-son "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 1-ilovasi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish loyihasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 12-iyundagi 03/17-1800-son ma'lumotnomasi). Taklif ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda sun'iy intellektni joriy etishning ko'p funksiyali imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish hamda inson kapitalini rivojlantirishning moslashuvchan kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

inson kapitalini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash strategiyasi korporativ madaniyatni innovatsiyalarga moslashtirishga ko'ra uzluksiz maslashuvchan ta'lim dasturini joriy qilish, sun'iy intellekt sharoitida inson kapitali va ish bilan bandlikni transformatsiya qilish orqali biznes jarayonini optimallashtirish va biznes jarayonida ijtimoiy vazifalarning ustuvorligini e'tiborga olgan holda integratsiyalash asosida takomillashtirish bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmonining 3-ilovasi "Ta'lim sifatini ta'minlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 12-iyundagi 03/17-1800-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif sun'iy intellektni biznes jarayonlarga samarali integratsiyalash, innovatsion

korporativ madaniyatni va inson kapitalini tizimli rivojlantirishga ko'ra mehnat unumdorligi va ish samaradorligini o'rtacha 25% ga oshirish, xarajatlarni esa 15–30% ga qisqartirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sun'iy intellektni joriy etish samaradorligini innovatsion va odatiy sun'iy intellektni dinamik tarzda birgalikda qo'llash va mehnat bozorining istiqbol talablarini resurslar imkoniyati uyg'unligiga ko'ra biznes jarayonlarni optimallashtirish asosida oshirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori 5-ilovasi "Yangi yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish hamda kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 12-iyundagi 03/17-1800-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif xususiy investor ishtirokida qiymati 10 mln. AQSH dollari bo'lgan kreativ sohalar klasterini tashkil etishga, kompaniyalar xodimlari kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali bozor o'zgarishlariga moslashishi va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalari aprobatyasi.** Tadqiqotning natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlarda 6 ta maqola hamda 3 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 150 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Sun'iy intellektni joriy etish sharoitida inson kapitali va ish bilan bandlik transformatsiyasining nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida raqamli iqtisodiyotda inson kapitalining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning rivojlanish xususiyatlarini ilmiy yondashuvlar asosida yoritib berilib, sun'iy intellektning inson kapitali va mehnat bozorining transformatsiyasiga ta'siri baholangan hamda raqamlashtirish va avtomatlashtirish sharoitida inson kapitali, bandlik va sun'iy intellektning o'zaro ta'sir modellari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan.


Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka investitsiyalar kiritilishi lozim. Ta'lim muassasalari SI va ilg'or texnologiyalar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga tayyor bo'lishi muhim. Bu ta'lim dasturlarini yangilashnigina emas, balki

xodimlarning mehnat bozorida o'zgarishlarga tez moslashishiga yordam beradigan qayta tayyorlash va uzluksiz o'qitish tizimini yaratishni ham talab qiladi. Shuningdek, ishdagi egaluvchanlik va o'quv qobiliyati biznes jarayonlariga SI integratsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Globallashuv sharoitida texnologiyalar tez rivojlanib borayotgan bir paytda, xodimlar yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish va intellektual tizimlar bilan samarali ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Biz bu ko'nikmalarni rivojlantirish mehnat unumdorligi va innovatsiya salohiyatining o'sishiga yordam berishiga hamda o'zbek kompaniyalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishiga ishonamiz.

Raqamli va moslashuvchan ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan qayta tayyorlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish zamonaviy inson kapitali shakllanishida muhim qadam bo'ladi. Shuningdek, korporativ o'qitish tizimlari kompaniyalarning strategik rejalarining ajralmas qismiga aylanishi kerak bo'lib, xodimlarning doimiy rivojlanishini va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini ta'minlaydi. Inson kapitalini transformatsiya qilish O'zbekiston iqtisodiyotiga SI va boshqa raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiya qilishning eng muhim sharti deb hisoblaymiz. Davlat qo'llab-quvvatlashi, ta'limga investitsiyalar va xodimlarni rivojlantirish jarayonida biznesning faol ishtirok etishi O'zbekistonga global miqyosda yetakchi mavqega ega bo'lish hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkonini beradi.

Tadqiqot asosida biz yuqoridagi barcha o'zaro bog'liqliklarni tasvirlovchi konseptual modelni taklif etamiz. Tadqiqotlar asosida modifikatsiya qilingan 1-rasmda SI integratsiyasi va inson kapitalini rivojlantirish orqali biznes/IT strategiyalarida yaxshilangan natijalar oqimi grafik ravishda aks ettirilgan. Bu tuzilma rahbarlarga SI va xodimlarni o'qitishga qaratilgan murakkab investitsiyalar raqobatbardosh qiymatini baholashga va nazarda tutilgan o'zaro bog'liqliklar bo'yicha strategik mavqeni egallashga yordam berish uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Adaptiv transformatsion qobiliyati shunday to'siqlarni bartaraf etadi va kompaniyalarga muvozanatli transformatsiyani orkestratsiya qilishda yordam beradi, inson kapitalini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi. Adaptiv transformatsion qobiliyat strategik qobiliyat sifatida kompaniyalarga transformatsiya yo'l xaritasini barqarorlashtirish imkonini beradi va turbulentshlik sharoitida yuqori ish unumdorligiga erishish uchun tayanch vazifasini bajaradi. SI imkoniyatlari va xodimlarning professional kompetensiyalari yordamida qo'llab-quvvatlanadigan bu dinamik moslashuvchanlik kompaniyalarga rivojlanishning keyingi bosqichini tezda muvofiqlashtirish va zarur o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi. Yuqori darajadagi ishtirokchilik orqali kompaniyalar uzoq muddatli yaxshilanishlar raqobatbardoshlikni oshirishga yordam berishini va qiyin davrlarda yangi yutuqlarga olib kelishini ta'minlaydilar. Ushbu tadqiqotning asosiy xulosalaridan biri shundaki, SI faqatgina vosita emas, balki tashkilot tabiatiga ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega kuchdir. Bu jarayonda inson kapitali hal qiluvchi rol o'ynaydi. SIning joriy qilish faqat texnik resurslar bilan cheklanib qolmay, balki yangi texnologiyalar bilan ishlash uchun zarur ko'nikma va bilimlarga ega xodimlarni ham talab etadi. SIning muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun biznes inson kapitalini faol ravishda rivojlantirishi, xodimlarning malakasini oshirishi, o'quv dasturlarini joriy etishi va ularni raqamli transformatsiya sharoitida ishlashga tayyorlashni ta'minlashi lozim.



Biznes muhitida inson va sun'iy intellekt (SI) sinergiyasi zamonaviy tashkilotlarda tobora muhim elementga aylanmoqda. Kompaniyalar samaradorlikni oshirish va innovatsiyalarni joriy etish uchun inson qobiliyatlarini SI qudrati bilan birlashtirishga intilishmoqda. Inson va SI o'rtasidagi o'zaro aloqalar bir qator nazariy modellarga asoslanadi, ularning har biri texnologiyalarni ish jarayonlariga integratsiya qilishga unikal yondashuvni taklif etadi (1-jadval).

**1-jadval**

**Inson va sun'iy intellekt o'zaro ta'sir modellari<sup>8</sup>**

Model	Tavsif	Qo'llanish namunasi	Afzalliklari
Gibrid intellekt	Inson intellekt va sun'iy intellekt birlashtirib, ular alohida bajara olmaydigan vazifalarni amalga oshirish.	Marketing tahlilida: inson intuitsiyasi va SIning hisoblash imkoniyatlarini uyg'unlashtirib, strategiyalarni yaxshilash va personalizatsiyani amalga oshirish.	Qarorlarning aniqligi va samaradorligini oshirish, inson kreativligi va SI tahlilining sinergiyasi.
Kollaborativ intellekt	Inson va SIning qaror qabul qilish jarayonida bir-birini to'ldirgan holda birgalikda ishlashi.	Loyihalarni boshqarishda: SI ma'lumotlar va prognozlar beradi, inson esa yakuniy qarorlar qabul qiladi.	Qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, inson va SI hamkorligi tufayli sifatni oshirish.
Insonga yo'naltirilgan SI (HCAI)	Inson ehtiyojlari va qobiliyatlarini birinchi o'ringa qo'ygan holda SI-texnologiyalarni ishlab chiqish.	Korporativ muhitda: SI xodimlarning ishini yaxshilash uchun avtomatlashtirilgan yechimlarni taklif qiladi.	Mehnat mahsulдорligini oshirish, xodimlari sifati va qoniqligini yaxshilash.
Mas'uliyatli SI joriy etish	SI ni ishlab chiqishda barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash orqali inson qadriyatlarini va biznes talablarini inobatga olish.	HR jarayonlariga SI joriy etish: korporativ madaniyatga mos keladigan va xodimlar tajribasini yaxshilaydigan SI yechimlarini yaratish.	SI ga ishonchni oshirish, xavflarni kamaytirish va kompaniya ichida SI qabul qilinishini yaxshilash.

Gibrid intellekt bu inson va sun'iy intellektning kombinatsiyasini ifoda etadi, bunda ikki tomon bir-birini to'ldiradi va ular alohida bajara olmaydigan vazifalarni bajarishga yordam beradi. SI inson imkoniyatlarini kuchaytiradi, ma'lumotlarni tahlil qilish va jarayonlarni avtomatlashtirish uchun vositalarni taqdim etadi, inson esa ijodkorlik, intuitsiya va mutaxassislik bilimlarini qo'shadi.<sup>9</sup>

Kollaborativ intellekt inson va SIning birgalikda ishlashini nazarda tutadi, bunda har ikki tomon qaror qabul qilishning barcha bosqichlarida o'zaro hamkorlik qiladi. SI analitik ma'lumotlar, prognozlar va tavsiyalar beradi, inson esa ulardan yakuniy qarorlar uchun foydalanadi, bu qarorlarning sifati va tezligini oshirishga yordam beradi. Bunday modelda texnologiyalarni integratsiya qilishdan maksimal samara olish uchun qo'shimcha qilish, muvofiqlik va hamkorlik tamoyillariga rioya qilish muhimdir.<sup>10</sup>

<sup>8</sup> Muallif tomonidan tadqiqot asosida tuzilgan.

<sup>9</sup> SpringerLink. Hybrid Intelligence in Marketing Analytics [Электронный ресурс]. URL: <https://link.springer.com/article/10.1057/s41270-023-00245-3>

<sup>10</sup> Sage Journals. Collaborative Intelligence in Business Decision-Making [Электронный ресурс]. URL: <https://journals.sagepub.com/doi/pdf/10.1177/00081256231211020>

Insonga yo‘naltirilgan sun‘iy intellekt (HCAI) yondashuvi inson ehtiyojlari va qobiliyatlarini markaziy o‘ringa qo‘yadigan texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Sun‘iy intellekt insonni almashtirmaydi, aksincha, ish unumdorligini oshirish va ish tajribasini yaxshilash uchun yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.<sup>11</sup>

Shunday qilib, biznes muhitida inson va sun‘iy intellekt (SI) sinergiyasi turli o‘zaro hamkorlik modellari orqali erishilishi mumkin, ularning har biri o‘ziga xos afzalliklarga ega. Mos modelni tanlash kompaniya maqsadlari va xodimlarning yangi texnologiyalarni joriy etishga tayyorligiga bog‘liq.

Natijada, biz bir-biri bilan bog‘liq bir qancha xulosalarni keltirishimiz mumkin. Inson kapitali tadqiqotlari bir fenomenning turli jihatlarini qamrab oladi, ularning har biri murakkab ko‘p komponentli muhitni ifoda etadi. Shu sababli, inson kapitali bo‘yicha tadqiqotlar yaqin kelajakda ham ancha fragmentlashgan holatda qoladi.

Inson kapitali shakllanishi va rivojlanishida raqamlashtirish va sun‘iy intellekt (SI) joriy etilishi uning rivojlanishi uchun muhim omillar, shuningdek, boshqaruv yordamchi mexanizmlari sifatida xizmat qiladi. SI ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi, bu inson kapitalini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi paytda, tadqiqotimizda keltirilgan yo‘nalishlarning har birini istiqbolli deb hisoblash mumkin, chunki ko‘plab yechimini kutayotgan bir-biri bilan bog‘liq ilmiy masalalar va amaliy vazifalar mavjud. SI ni joriy etish bu vazifalarni hal qilish uchun qo‘shimcha istiqbollarni ochib beradi, ayniqsa, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, prognozlar aniqligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishni optimallashtirish sohasida.


Dissertatsiya ishining **“Sun‘iy intellektdan foydalangan holda biznes jarayonlarini optimallashtirish jarayonida inson kapitali va mehnat bozori transformatsiyasining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida sun‘iy intellektni joriy etish sharoitida samarali ishga joylashish uchun yangi kompetensiyalar va ko‘nikmalarni shakllantirish holati va inson kapitali transformatsiyasi orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish va bandlik tuzilmasini o‘zgarishi tahlil qilingan hamda inson kapitali va mehnat bozori transformatsiyasi jarayonidagi muammolar, to‘siqlar hamda ijtimoiy masalalar aniqlangan.

Xorijiy tadqiqotlarda generativ SI ish jarayonlari va tuzilmalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Barcha zamonaviy ish o‘rinlarining, taxminan, 60,0–70,0%i SI joriy etilishi natijasida asosiy jarayonlarida o‘zgarishlarga duch keladi. 2030-yilgacha dunyo bo‘yicha taxminan 400 million ish o‘rni avtomatlashtirilishi kutilmoqda. Bu yangi malakalarga, masalan, mashinalar bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va sun‘iy intellekt ko‘nikmalariga ehtiyoj tug‘diradi. Shuningdek, SI oddiy vazifalarni almashtirishi mumkin bo‘lgan kasblarda band bo‘lganlar uchun qayta tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

---

<sup>11</sup> Interaction Design Foundation. Human-Centered Artificial Intelligence (HCAI) [Электронный ресурс]. URL: <https://www.interaction-design.org/literature/topics/human-centered-ai>





**2-rasm. Texnologiyalarni joriy etishning ish o'rinlariga kutilgan ta'siri, 2023–2027-yillar.<sup>12</sup>**

2-rasmda barcha texnologiyalardan boshqasi kelgusi besh yil ichida ish o'rinlari yaratilishini ta'minlashi kutilmoqda.

Katta ma'lumotlar analitikasi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash texnologiyalari, atrof-muhitni boshqarish texnologiyalari, shifrlash va kiberxavfsizlik ish o'rinlari sonining o'sishining asosiy omillari bo'lishi kutilmoqda. Qishloq xo'jaligi texnologiyalari, raqamli platformalar va ilovalar, elektron tijorat va raqamli savdo, shuningdek, sun'iy intellekt ish bozorida sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqarishi kutilmoqda, bunda ko'plab kompaniyalar o'z tashkilotlarida ish o'rinlari qisqarishini, boshqa sohalarda ish o'rinlari yaratilishi bilan qoplanishini taxmin qilmoqda, bu esa natijada musbat ta'sirga olib keladi.

Atrof-muhitni boshqarish texnologiyalari turli sohalarda joriy etilish darajasi bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi: neftgaz sohasida ish beruvchilarning 93,0% ushbu texnologiyani joriy etishni rejalashtirmoqda, ularning ortidan kimyo sanoati va ilg'or materiallar (88,0%) hamda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (86,0%) kelmoqda. Bundan farqli ravishda, ish bilan ta'minlash xizmatlari sohasida ish beruvchilarning faqat 26,0% ushbu texnologiyani joriy etishni rejalashtirmoqda, ularning ortidan ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalari (36,0%) hamda sug'urta va pensiya fondlarini boshqarish (42,0%) kelmoqda.

Xuddi shunday, to'ldirilgan va virtual reallik, ehtimol, elektronika (80,0%);


<sup>12</sup>Muallif tomonidan Jahon Iqtisodiy Forumi, Future of Jobs Survey 2023 ma'lumotlari asosida tuzilgan.



tadqiqotlar, loyihalashtirish va biznesni boshqarish (77,0%); hamda energetika texnologiyalari va kommunal xizmatlar sohalaridagi tashkilotlar tomonidan keng ko‘lamda joriy etiladi, bu ko‘rsatkich konchilik va metallurgiya sanoati (46,0%); joylashtirish, ovqatlanish va dam olish industriyasi (42,0%); hamda qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik sohalarida (30,0%) nisbatan past bo‘ladi.

O‘zbekiston aholisi o‘rtasida raqamli ko‘nikmalar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, foydalanuvchilarning ko‘pchiligi fayllarni ko‘chirish va saqlash (52,0%) hamda hujjatlarda ko‘chirish va qo‘yish vositalaridan foydalanish (45,0%) kabi asosiy amallarni ishonchli bajaradi. Bu ko‘nikmalar kompyuterda ishlashning asosini tashkil etadi va keng tarqalgan. Ta’kidlash joizki, respondentlarning 40% ilovali elektron xatlardan foydalanadi, bu elektron pochtdan aloqa uchun, ayniqsa, ish va ta’lim sohalarida faol foydalanishni ko‘rsatadi (3-rasm).


Shu bilan birga, elektron jadvallarda arifmetik formulalardan foydalanish (36,0%) va elektron taqdimotlar yaratish (35,0%) kabi murakkabroq raqamli ko‘nikmalar kamroq odamlar tomonidan o‘zlashtirilgan, bu esa maxsus dasturiy ta’minotdan kundalik ishda cheklangan darajada foydalanilishini aks ettiradi. Eng kichik foiz (18,0%) qurilmalar o‘rtasida fayllar uzatish ko‘nikmasini namoyish etdi, bu esa qurilmalar o‘rtasidagi ma’lumotlarni sinxronlash va boshqarish sohasida bilim yetishmasligini ko‘rsatishi mumkin. Bu ayniqsa ilg‘or texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha raqamli savodxonlik darajasini yanada oshirish zarurligini anglatadi.



**3-rasm. 2024-yilda O‘zbekistonda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish<sup>13</sup>.**

Agar korxonalar ro‘yxatdan o‘tmasdan va IT-park rezidentlariga aylanmasdan turib raqamli texnologiyalarni joriy etsa, ularga cheklangan rag‘batlar beriladi. Soliq imtiyozlari va o‘qish imkoniyatlari kabi afzalliklar faqat rezidentlar uchun mavjud bo‘lib, IT-sektorga kirmaydigan kompaniyalarni noqulay holatga soladi.

<sup>13</sup>Jahon banki ma’lumotlari asosida tuzilgan.



**4-rasm. Aholining standart AKT ko'nikmalariga ega bo'lishi<sup>14</sup>.**

MDHning boshqa davlatlari orasida O'zbekiston eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, 2015-yilda 6,2% dan boshlab, 2024-yilga kelib 9,7% ga yetgan. Suzib o'sishga qaramasdan, uning sur'ati boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha past bo'lib qolmoqda, bu esa mavjud to'siqlar yoki tegishli sohada yetarlicha sa'y-harakatlar yo'qligini ko'rsatishi mumkin (4-rasm).

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni taklif qilish mumkin:


1. Strukturalashgan o'qitish va qayta tayyorlash dasturlarini yaratish. Universitetlar va biznes hamkorligida SI va raqamli texnologiyalarni o'qitish bo'yicha milliy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish zamonaviy vositalarni biznes jarayonlariga tezroq integratsiya qilishni tezlashtiradi. Bu, shuningdek, kasbiy ishsizlik xavfini minimallashtirishga yordam beradi, ayniqsa, yoshlar va katta yoshdagi mutaxassislar o'rtasida.

2. Xususiy korxonalarni raqamlashtirishga rag'batlantirish. Davlat SI va avtomatlashtirishni joriy etish uchun imtiyozlar va subsidiyalar taklif qilishi mumkin, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar (KO'K) uchun. Bu yirik kompaniyalar va KO'K o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga hamda milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

3. Barcha ta'lim darajasida raqamli savodxonlikni oshirish. Raqamli texnologiyalar va ko'nikmalarni joriy etish, boshlang'ich va o'rta ta'limdanoq boshlanishi va universitetlarda hamda ish joylarida davom etishi kerak. O'zbekiston mutaxassislari yangi ish sharoitlariga muvaffaqiyatli moslasha olishlari va global bozorda raqobatlasha olishlari uchun kasbiy faoliyat davomida raqamli kompetensiyalarni doimiy ravishda rivojlantirish uchun sharoit yaratish zarur.


O'zbekiston korxonalarida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inson kapitaliga investitsiya kiritadigan kompaniyalar o'z raqobatchilaridan ko'ra, barqaror va mustahkam moliyaviy natijalarni namoyish etadilar. Korxonalarning o'n yillik moliyaviy samaradorligini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, inson kapitaliga investitsiyalar barcha turdagi kompaniyalarga afzallik beradi, garchi ta'sir darajasi turlicha bo'lsa ham.

<sup>14</sup>Muallif tomonidan OECD ma'lumotlari asosida tuzilgan.



**5-rasm. Xodimlar rivojlanishi va samaradorligi bo'yicha yetakchi kompaniyalar<sup>15</sup>.**

5-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xodimlar va mehnat unumdorligiga yo'naltirilgan kompaniyalar (P+P Winners) hamda natijaga yo'naltirilgan kompaniyalar (Performance-Driven Companies) iqtisodiy rentabellik bo'yicha yetakchi o'rinda turadilar. Ushbu kompaniyalar sarmoyadan olingan daromad (ROIC) bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etmoqda. Biroq, odamlarga yo'naltirilgan kompaniyalar va tipik ijrochilarni solishtirish iqtisodiy rentabellikda sezilarli tafovutni (minus 5,0%) ko'rsatdi (6-rasm).



**6-rasm. Odatiy ijrochilarga yo'naltirilgan kompaniyalar<sup>16</sup>.**


Xodimlarga yo'naltirilgan kompaniyalar, shuningdek, ROIC va daromad o'sishi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etadilar. Bundan tashqari, ular EBITDA bo'yicha ko'proq o'sishni (7,0% ga qarshi 5,0%) va o'n yillik davrda

<sup>15</sup>O'zbekiston korxonalari va kompaniyalari tadqiqotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

<sup>16</sup>O'zbekiston korxonalari va kompaniyalari tadqiqotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

aksiyalar bo'yicha umumiy daromadni (8,0% ga qarshi 7,0%) ko'rsatmoqda.

Ish xodimlar hayotining muhim qismini egallaydi, shuning uchun o'qitish imkoniyatlari va uzoq muddatli karera o'sishidan tashqari, kompaniyada kundalik ish tajribasi ham xodimlarning hayotdan qoniqish va sog'lig'iga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. O'zbekistondagi P+P Winners kompaniyalari o'zlarining yuqori darajadagi qoniqish bilan ajralib turuvchi ijobiy ish muhitiga ega. Bunday kompaniyalar sodiqlik indeksini (NPS) 20,0% darajasida ko'rsatadi, bu odamlarga yo'naltirilgan kompaniyalarga (19,0%) teng va natijaga yo'naltirilgan kompaniyalar (16,0%) hamda odatiy ijrochilardan (14,0%) ancha yuqori.



**7-rasm. Biznes jarayonlarini transformatsiya qilishga yondashuvlarning o'zgarishi, %da<sup>17</sup>**

7-rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sun'iy intellekt joriy etilishi va inson kapitali rivojlanishi rahbarlarning ustuvor yo'nalishlarini optimizatsiya va ishni qayta dizayn qilishdan uni to'liq qayta ko'rib chiqishga o'tishga rag'batlantirmoqda.

Sun'iy intellektni joriy etish va inson kapitalini mustahkamlash O'zbekiston kompaniyalariga ishni tashkil etishga yanada kompleks va istiqbolli yondashuvni ta'minlaydi, bu esa ularga yangi sharoitlarga moslashish bilan birga kelajakda raqobatbardosh afzalliklarni shakllantirish imkonini beradi.

Biznes jarayonlarini qayta tashkil etish faqat vazifalar va jarayonlarni avtomatlashtirishdan ko'ra kengroq tushunchaga ega. U ish jarayonini maqsadli ravishda loyihalashtirishni o'z ichiga oladi, bu esa xodimlarning kuchli tomonlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning potensialidan to'liq foydalanish imkonini beradi. Bunday yondashuv ish insonning o'ziga xos sifatlari va ko'nikmalariga moslashtirilganida yuzaga keladigan qo'shimcha afzalliklarni olish imkonini beradi.


Aynan shu sababli, bizning tadqiqotimizda qatnashgan rahbarlar ish

<sup>17</sup> Muallif tomonidan 100 nafar rahbar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomasi asosida tuzilgan

transformatsiyasi muvaffaqiyati uchun tanlab olgan inson potentsiali bilan eng yaqin bog‘liq bo‘lgan ikki muhim omilni tanlab oldilar.

Eng muhim yo‘nalish – bu o‘shish, moslashuvchanlik va barqarorlikni rag‘batlantiruvchi tashkilot madaniyatini yaratishdir (45,0%). Bu raqamli transformatsiya sharoitida o‘zgarishlarga tez moslashish va moslashuvchanlikning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bunday madaniyat xodimlarning potentsialini maksimal darajada ochishga yordam beradi, bu esa sun’iy intellektni integratsiya qilish sharoitida, inson kapitali yangi texnologiyalar bilan moslashuvchan ravishda o‘zaro hamkorlik qilishi zarur bo‘lgan paytda, ayniqsa muhimdir.

